



*Tursunali XUDAYNAZAROV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b., PhD*  
*E-mail: tursunalihudajazarov@gmail.com*

*O'z.XIA dotsenti, PhD A.Nazarov taqrizi asosida*

## THE STATE OF PSYCHOLOGICAL RESEARCH INTO THE PHENOMENA OF REINFORCEMENT AND PUNISHMENT

Annotation

In modern psychology, the specificity of the use of incentive and punitive methods in ensuring the effectiveness of students' learning activities in the educational process requires consideration of the characteristics of the activities performed by students. The article discusses the question of whether the phenomena of motivation and punishment are a factor that ensures the effectiveness of student learning activities.

**Key words:** Encouragement, punishment, education, educational methods and phenomenon.

## СОСТОЯНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ФЕНОМЕНОВ ПОощРЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ

Аннотация

В современной психологии специфика использования методов поощрения и наказания в обеспечении эффективности учебной деятельности студентов в образовательном процессе требует учета особенностей осуществляемой студентами деятельности, и изучение данного вопроса как феномена представляется важным. В статье рассматривается вопрос о том, являются ли феномены поощрения и наказания фактором, обеспечивающим эффективность учебной деятельности студентов, и состояние его исследований.

**Ключевые слова:** Поощрение, наказание, воспитание, методы воспитания и феномен.

## RAG'BATLANTIRISH VA JAZOLASH FENOMENLARINI PSIXOLOGIK TADQIQ ETILGANLIK HOLATI

Annotatsiya

Zamonaviy psixologiyada ta'lim jarayonida talabalar o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlashda rag'batlantirish va jazolash usullarini qo'llashning o'ziga xosligi talabalar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi va ushbu masalani fenomen sifatida o'rganish muhimdir. Maqolada rag'batlantirish va jazolash fenomenlari talabalar o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlovchi omil ekanligi, hamda uning tadqiq etilganlik holati haqida savol ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Rag'batlantirish, jazolash, ta'lim, ta'lim usullari va fenomen.

**Kirish.** Rag'batlantirish va jazolash ta'limning qadimgi usullari va ushbu usullarni qo'llash muammosi hozir ham dolzarbdir. Chunki, zamonaviy ta'lim ham ushbu usullarsiz amalga oshirilmaydi. Qolaversa, zamonaviy hayot sharoitlari ushbu usullarni qo'llash uchun yangi yondashuvlarni talab qiladi va bu usullar doimo dinamik ravishda o'zgaruvchan sharoitlarga muvofiqligi bilan ajralib turadi. Darhaqiqat, axir, ta'lim bu talabning muhim kuchlarini ochib berishga, shaxsning ijobiy ijtimoiy va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga, o'tgan avlodlar tajribasini o'zlashtirishga va u mavjud bo'lgan jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy tomonlarini anglashga qaratilgan murakkab, ko'p qirrali jarayondir.

**Asosiy qism.** Shaxs kamolotida bir qancha komponentlar muhim rol o'ynaydi. Komil inson obrazi shakllanishi uchun shu shaxsning individual psixologik xususiyatlari, sifatleri, shaxsning psixofiziologik holati va boshqa bir qancha faktorlar katta ta'sirga ega. Yuqoridagi omillar qatorida ta'lim va tarbiya alohida o'rin tutadi. Chunki aynan ushbu omillar orqali ulardan shaxs kamolotiga ta'sir qiluvchi jihatlarni shakllantirish mumkin.

Ta'lim sohasi insoniyatning sivilizatsion rivojlanish bosqichining ilk davrlaridan boshlab muhim jarayon bo'lib kelgan. Har bir davrda uning rivojlanishi va sifatini oshirish asosiy maqsadlardandir. Ta'lim jarayoni bir necha tarkibiy bosqich va komponentlardan iborat. Ularning eng muhimlaridan biri jazolash va rag'batlantirish jarayonlaridir.

Mazkur jarayonlar ta'lim, ijtimoiy, huquqiy-yuridik amaliyotda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, rag'batlantirish va jazolash insonning xulq-atvorini o'zgarishida muhim asosiy determinant bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, rag'batlar xatti-harakatlarni mustahkamlashga, jazolash esa xatti-harakatlarning susayishiga sabab bo'ladi degan qarashlar ham mavjud. Biroq, ko'plab tadqiqotlar ushbu qarashlarni rad etadi. Rag'batlantirish va jazolash fenomenini o'rganish, ilmiy tahlil qilish tarixi o'ziga xos davrlarni o'z ichiga oladi.

Rag'batlantirish va jazolash bo'yicha dastlabki ilmiy tadqiqotlar klassik psixologiya vakillari tomonidan amalga oshirilgan. Dastlabki tadqiqotlarda rag'batlantirish stimulyatsiya assotsiatsiyalarini mustahkamlashga yordam berishi, jazolash esa ushbu assotsiatsiyalarning susayishiga sabab bo'lishi, xulq-atvor o'zgarishida rag'batlantirish hamda jazolashning ta'siri qandayligi, odatlarni yo'qotishda rag'batlantirish hamda jazolashning ta'siri qay darajada ekanligini aniqlash kabi asosiy vazifalar qo'yilgan edi. Yuqorida keltirib o'tilgan masalalar bir qancha tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan bo'lib, turlicha ilmiy xulosalarga kelingan.

Rag'batlantirish va jazolash masalasida dastlabki ilmiy qarashlar E.Torndayk tomonidan bildirilgan. E.Torndaykning tadqiqotlari rag'batlantirish va jazolash masalasida dastlabki tizimli tadqiqotlar hisoblanadi. Uning tadqiqotlari ta'limda rag'batlantirish hamda jazolashda samaradorlikni tahlil etish

bo'yicha ko'plab nazariy bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Yarim asr davomida uning tadqiqot ishlari ko'plab ilmiy doiralar uchun asosiy nazariy ma'lumotlar manbai sifatida xizmat qildi. O'zining tadqiqotlaridan olingan ilmiy xulosalarini E.Torndayk o'z ilmiy asarlarida bayon qilgan. E.Torndayk rag'batlantirish va jazolashning umumiy jihatlarini tahlil qilgan. Uning tadqiqot ishlari asosan bixevioristik qarashlar asosida bo'lib, xulq-atvorning kelib chiqishida rag'batlantirish va jazolashning ahamiyati o'rganilgan.

Rag'batlantirish va jazolash masalasiga to'xtalib o'tgan yana bir mashhur olimlardan biri Skinner hisoblanadi. Skinner inson rivojlanishi jarayonida xatti-harakatlarni o'zlashtirishida rag'batlantirish va jazolash fenomenlari muhim o'rin tutishini ta'kidlagan. Olim o'z izlanishlarida insonning ta'lim olish, hayotiy tajriba orttirish jarayonida uning o'zlashtirgan malaka, ko'nikmalari, bilimlarini mustahkamlab borishi, shu ko'nikma va bilimlarining samaradorligini oshirishini qayd etadi. Mustahkamlash jarayoni orqali rag'batlantirish va jazolashning sifat darajasi oshib boradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida yangi xatti-harakatlarni sifatli o'zlashtirish uchun to'g'ri rag'batlantira olish hamda o'z vaqtida jazolay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Skinner shaxs shakllanishida inson rivojlanishining ibtidoiy davrdan amalda sinalib kelingan rag'batlantirish hamda jazolash komponentlari o'z ahamiyatini yo'qotmasligini, balki davrga moslashgan holda har xil shaklda namoyon bo'lishi bilan doimiylik ahamiyatini kasb etishini ta'kidlaydi. Tarixiy evolyutsiyaning dastlabki bosqichlarida jazolash ham, rag'batlantirish ham asosan biologik va fiziologik vositalar yordamida amalga oshirilgan. YA'ni, jismoniy jazolash hamda oziq-ovqat orqali mukofotlash rag'bat va jazoning arxaik shakllari hisoblangan. Shaxs evolyutsion taraqqiyotning yuqori pog'onalariga ko'tarilar ekan, rag'batlantirish va jazolash vositalari hamda usullari ham rivojlanib borgan. Shuningdek, rag'batlantirish va jazolash evolyutsion rivojlanishning quyi bosqichdagi biologik turlar – hayvonlarda ham ma'lum reflektiv xatti-harakatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Yuqoridagi ilmiy xulosalarga Skinner uzoq muddatli kuzatish va tadqiqotlar natijasida kelgan. Uning izlanishlarining natijalari psixologiyaning turli tarmoqlari uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

XX asrga kelib rag'batlantirish va jazolash masalasini psixologiyada turli kasbiy sohalarida va tarmoqlardagi ahamiyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bunga ijtimoiy hayotning shart-sharoitlari hamda ijtimoiy munosabatlarda yangi qadriyatlarining shakllanishi sabab bo'ladi. Shu bois, ushbu davrda rag'batlantirish va jazolash fenomenini yangicha talqinda o'rganish jarayonida inson fikrlash erkinligi, xulq-atvor nazorati hamda xulq-atvor erkinligi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan tadqiqotlarni keltirib o'tish mumkin. Shunday tadqiqotlardan biri sifatida B.Immerglyukning tadqiqot ishi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mazkur tadqiqotda muallif shaxs xulq-atvorining shakllanishidagi asosiy sabablarni tahlil qilgan bo'lib, shaxsning mustaqil shaxs bo'lib rivojlanishida xulq-atvorning o'rni muhimligini ta'kidlagan. Xulq-atvorning avtonomligini ta'minlashda asosiy determinantlardan biri ta'lim bo'lib, ta'limdagi rag'batlantirish hamda jazolash shaxsdagi xulq-atvorini shakllanishida o'zak vosita bo'lib xizmat qilishi mumkinligini mutaxassis o'z tadqiqot xulosasida keltirib o'tadi.

Yuqoridagi mavzuda A.Granbaumning tadqiqoti ham muhim ilmiy ahamiyatga ega xulosalarni o'z ichiga olgan. Mazkur ilmiy tadqiqot ishining o'ziga xos jihati xulq-atvorga ta'sir etuvchi ijtimoiy, biologik va boshqa jihatlarini tahlil qilinganligidadir. Muallif tadqiqot ishida xulq-atvorning shakllanishi, xulq-atvorning o'zgarishida ta'lim va tarbiya

muhim ahamiyatga egaligini, ta'lim va tarbiya jarayonida esa rag'batlantirish hamda jazolash jarayonidan o'rinli foydalanish katta ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi. Rag'batlantirish hamda jazolash jarayonida pedagoglardan talab qilinadigan asosiy shart - bolalarning individual-psixologik xususiyatlari hamda fiziologik holatini inobatga olishdir. A.Granbaumning xulq-atvor masalasiga oid ilmiy izlanishlari esa zamonaviy tadqiqotlar uchun muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulq-atvor determinantlari, xususan, xulq-atvorga rag'batlantirish hamda jazolashning qay darajada ta'sirga ega ekanligi bo'yicha ma'lumotlar E.Boring tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda keltirib o'tilgan. Mazkur ishda ham xulq-atvor shakllanishida rag'bat va jazolashning o'rni mavjudligi, ushbu fenomenning ta'siri insonda xulq-atvor shaklining qay biri shakllanishini belgilab berishda ta'sirga egaligini muallif o'z ilmiy ishida qayd etib ketadi. E.Boring mazkur tadqiqot ishida xulq-atvor shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy omillarni qayd etgan. Bu esa izlanishning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Rag'batlantirish va jazolash ta'siri masalasida o'tkazilgan tadqiqotlarda ko'plab jihatlariga yondashilgan bo'lib, bir qancha ilmiy ahamiyatga ega xulosalarga kelingan. Shunday ilmiy izlanishlardan biri sifatida Kaliforniya universiteti olimlari Karsh va Uilyamsning ilmiy izlanishlari hisoblanadi. Ular o'zlarining tadqiqotlarida maktab ta'limi o'qish jarayonida rag'batlantirish va jazolashdan foydalanishning ahamiyatini tahlil qilishgan. Tadqiqotchilar ilmiy izlanishlari orqali pedagogik faoliyatda rag'batlantirish va jazolashning ta'sir ko'lami, natijaviyligi, ehtimoliy istiqbollari haqidagi ilmiy tahlillarni amalga oshirishgan. Shuningdek, Karsh hamda Uilyams o'z tadqiqotlarida o'quv jarayonidagi rag'batlantirish va jazolash turlarini klassifikatsiya qilgan. Ushbu klassifikatsiya ta'lim jarayonida rag'batlantirish hamda jazolashning samarali shakllarini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari ta'lim tizimida katta o'zgarishlar davrida amalga oshirilganligi sababli ham tadqiqot natijalaridan ko'plab zamonaviy ta'lim jarayonlarida foydalanilgan.

XX asring ikkinchi yarmida ilm-fan va texnologiyalar inqilobi zamirida ta'limga munosabatning keskin oshishi, ta'lim sifati, o'quv samaradorligi kabi ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlarni rivojlantirish yo'llarini topish ilm-fanning asosiy maqsadiga aylandi. Mazkur ilm-fan evolyutsiyasi doirasida psixologiyada ham ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish masalasida ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Xususan, ta'lim jarayonidagi rag'batlantirish va jazolash fenomeni ham asosiy tadqiqot obyektlaridan biri sifatida ko'plab tadqiqot ishlarining asosiy obyekti sifatida qarala boshlandi. Shunday tadqiqotlardan biri Oklaxoma universiteti tadqiqotchisi Monte-Merl Peyj tomonidan qilingan tadqiqot ishi hisoblanadi. Peyjning tadqiqot ishida rag'batlantirish va jazolashning OTMlarda o'qitiladigan fanlarni o'zlashtirish va yaxshilashdagi psixologik bosimning ahamiyati o'rganilgan. Tadqiqotchi mazkur tadqiqot ishining nazariy qismini hamda metodologik asosini shakllantirishda bir qancha ilmiy tadqiqot va izlanishlarni asos qilib olgan. Ilmiy tadqiqot ishining nazariy qismida SHefer va Merfining noodatiy vaziyatlarda rag'batlantirish va jazolashning idrok jarayoniga ta'siri o'rganilganligi tahlil qilingan. Noodatiy vaziyatlarda rag'batlantirish va jazolash bo'yicha SHefer va Merfining tadqiqotlari mazkur masalada original izlanishda ekanligini qayd etish zarur. Monte-Merl Peyj mazkur tadqiqot ishini talqin etar ekan, mualliflar kelgan ilmiy xulosadan kelib chiqqan holda noodatiy vaziyatlarda rag'batlantirish samaraliroq ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot ishining nazariy-metodologik qismida Pensilvaniya universiteti tadqiqotchisi Orn tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishiga to'xtalib o'tilgan. Orn rag'batlantirish va jazolash masalasini sotsial munosabatlarda va sotsial muhitdagi o'rni tahlil qilgan bo'lib, mazkur ijtimoiy muammolarni yechishda rag'batlantirish hamda jazolashning o'rni masalasida zaruriy ilmiy xulosalar beradi. Orn tadqiqotining tahlili tadqiqotdagi talabalar o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tahlil qilishda ko'maklashgan.

Monte-Merl Peyning tadqiqot ishining amaliy qismida OTMlarda tahsil oluvchi talabalarni rag'batlantirish va jazolash fenomeni turli talabalarga turlicha ta'sir qilishi mumkinligi qayd etiladi. Bunda talabani individual-psixologik xususiyatlari, emotsional va irodaviy sohasi, motivatsion sohalari muhim rol o'ynashi tadqiqot natijalari orqali aniqlanadi. Ushbu tadqiqot ishi kelajakdagi mazkur mavzudagi tadqiqotlarning asosiy nazariy-metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda tahsil oluvchilarning ta'lim jarayonida rag'batlantirish hamda jazolashga xulq-atvor boshqaruvidagi munosabatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar qatorida Keren Tiddning izlanishlari, ilmiy manbalari va natijalari bilan ajralib turadi. Tadqiqotchi rag'batlantirish va jazolashning xulq-atvor boshqaruvidagi ahamiyatini atroflicha tahlil qilgan. Tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki, o'z vaqtida mukofotlangandagi xulq-atvorining dinamikasi hamda jazolangandagi xulq-atvor holatining tafovutlari mavjud. Ushbu ilmiy tadqiqot ishida muallif maktab o'quvchilarining xulq-atvoriga rag'batlantirish va jazolash ta'siri darajasini qayd etgan. Tadqiqot xulosalariga ko'ra kichik maktab yoshida xulq-atvor shakllanishida meyoriy rag'batlantirish hamda jazo ijobiy samaraga egaligini muallif ta'kidlagan. K.Tiddning tadqiqot ishi rag'bat va jazo fenomenlarining zamonaviy ta'limdagi ahamiyatini qayd etib bergan muhim tadqiqot ishlaridan biri sanaladi.

Ma'lumki, rag'batlantirish va jazolash tahsil oluvchilarni o'qishga bo'lgan munosabatlarni ijobiyashtirish maqsadidagi stimullar sifatida qaraladi. Shu sababli ham ularning har biri ta'lim sifati va o'quv samaradorligini qayd etishda

kuchli ta'sirga ega omillardan hisoblanadi. Shuningdek, rag'batlantirish hamda jazolash o'quvchi shaxsini rivojlanishida ham o'ringa ega. Shu sababli ham psixologiyada rag'batlantirish va shaxs shaxsiyati dinamikasini o'rganishga qaratilgan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shulardan indoneziyalik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari ilmiy-amaliy qiymati yuqori tadqiqotlar qatoriga kiradi. Tadqiqotchilar mukofot va jazolashning boshlang'ich maktab o'quvchilarining tashqi motivatsiyasiga ta'sirini o'rganishgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, doimiy va uzluksiz rag'batlantirish ham, jazolash ham bolaning psixik barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa bevosita o'quvchi motivatsion sohasini buzilishiga olib kelishi qayd etiladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda rag'batlantirish va jazolash inson faoliyatining har bir jarayonida va bosqichida muhim rol o'ynaydi. Biroq, ushbu jarayonlar turli holatlarda turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, ta'lim va tarbiya jarayonida rag'batlantirish samarali natijalar berishi mumkin. Huquqshunoslik va iqtisod sohaslarida esa rag'batlantirish va jazolashning samarasi nisbatan teng taqsimlanishi mumkin. Shu sababli, rag'batlantirish va jazolashga alohida fenomen sifatida qaraladi. Rag'batlantirish va jazolash mavzusining psixologiyada dolzarbligining asosiy sababi ham shunda. Psixologiyada bir holatning turlicha psixologik oqibatlari shu mavzudagi tadqiqot ishlarini kengroq miqyosda va turli jihatlarini o'rgangan holda tadqiq etish shartini maqsad qilib qo'yadi. Soha mutaxassislarini tayyorlovchi oliy ta'lim tizimida o'quv samaradorligining pastligi ushbu sohaga oid rivojlanish jarayonida jiddiy muammolar olib kelish yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Agar psixologiya, pedagogika singari sohalarda zaruriy ilmiy tadqiqotlar olib borilib, natijalar asosida zaruriy amaliy tadbirlar amalga oshirilsa, o'quv samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa barcha ilmiy va noilmiy sohalarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Garina O.G., Milexina I.A., Kadushina V.A. Sosialno-ekonomicheskaya znachimost zanyatiy fizicheskoy kulturoy i sportom// Nauka i obshchestvo. 2018. № 3 (32). S. 125 – 129.
2. Milexina I.A., Milexin A.V. Zdrovesberegayushaya deyatelnost studencheskoy molodeji// V sbornike: Aktualnie problemi i perspektivi razvitiya fizicheskoy kulturi i sporta v visshix uchebnix zavedeniyax Minselxoza Rossii. Sbornik statey Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferensii. 2016. S.286-290.
3. Milexin A.V., Milexina I.A., Skosireva E.N., Tarasov V.A. Vospitanie dissiplirovannosti na zanyatiyax fizicheskoy kulturoy kak rezultat kompleksnogo vozdeystviya// V sbornike: Aktualnie problemi vospitaniya v obrazovatelnom prosesse vuza. Sb. statey Mejevuzovskoy nauchno-prakticheskoy konferensii. 2017. S.15-19.
4. Konovalova M.P., Milexina I.A., Garina O.G., Kadushina V.A., Cherevishnik N.N., Eroxina N.A., Vasekin Yu.I., Kalmikov I.S. Povishenie fizicheskogo statusa studencheskoy molodeji na osnove Vserossiyskogo kompleksa GTO. Saratov, 2018.
5. Гребнева Д.М. Учебная успешность как процесс и результат педагогического взаимодействия / Педагогическое образование в России. - 2011. - № 1. - С. 251-254.
6. Залесова Н.В. К вопросу о формировании академической успешности студентов // Вестник Шадринского государственного педагогического института. - 2014. - № 2 (22). - С. 34-39.
7. Ишков А.Д. Учебная деятельность студента: психологические факторы успешности. М.: Изд-во АСВ, 2004. 224 с.